

Krugman, P. (1988) 'Financing vs. Forgiving a Debt Overhang', *Journal of Development Economics*, 29(3), pp. 253–268.

Reinhart, C.M. and Rogoff, K.S. (2010) 'Growth in a Time of Debt', *American Economic Review Papers & Proceedings*, 100(2), pp. 573–578.

Solow, R.M. (1956) 'A Contribution to the Theory of Economic Growth', *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), pp. 65–94.

World Bank (2020) *Debt Sustainability Framework for Low-Income Countries*. Washington, DC: World Bank.

## **MILLIY ISHLAB CHIQRUVCHILARNING JAHON BOZORLARIDA RAQOBATBARDOSHLIGINI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA BARQARORLASHTIRISH (O'ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA)**

**Fozilova Shaxloxon**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston  
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"  
ilmiy - tadqiqot markazi doktoranti*

Globalizatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan bugungi davrda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti raqobatbardoshligi faqat narx va ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki korxonaning barqaror rivojlanish modeli, ekologik mas'uliyati va boshqaruv sifati bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, ESG tamoyillari korxonalarining uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro savdo talablarining murakkablashuvi hamda ekologik standartlarning kuchayishi sharoitida milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masalaga aylandi. Xususan, Yevropa Ittifoqining CBAM mexanizmi, xalqaro moliya institutlarining ESG talablarini kuchaytirishi eksport qiluvchi korxonalar uchun yangi institutsional shartlarni yuzaga keltirmoqda.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish masalasi nafaqat moliyaviy va texnologik omillar bilan, balki korxonalarining barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga moslashuviga ham bog'liq. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari strategik instrument sifatida namoyon bo'ladi, chunki u korxonalar faoliyatining ekologik, ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini tizimli boshqarish imkonini beradi.<sup>3435</sup>

ESG tamoyillari korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda bir nechta yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi va milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozorlarida

---

<sup>34</sup>Gan, Y., & Na-Nan, K. (2020). Employees' awareness of environmental, social and governance (ESG) principles as a factor of corporate social responsibility: A scale development study. *International Journal of Corporate Social Responsibility*, 5(1), 12–28.

<sup>35</sup> Wang, S. L., Chin, M. K., & Sheehan, N. T. (2022). From principles to practice: Developing implementable ESG frameworks. *Journal of Corporate Sustainability*

raqobat ustunligini shakllantirish uchun institutsional va strategik mexanizm vazifasini bajaradi.

#### Atrof-muhit tamoyili

Ekologik mas'uliyat va resurslardan samarali foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, energiya samaradorligini oshiradi, va ishlash chiqaruvchilarni mahsulotlarini toksik chiqindilarni xom ashyo sifatida foydalanmasligini boshqaradi. Bu esa global bozorda raqobat ustunligini beradi, ayniqsa Yevropa va boshqa rivojlangan bozorlarda.

#### Ijtimoiy tamoyili

Xodimlar xabardorligi va ijtimoiy barqarorlik orqali korxonalar reputatsiyasi va brend imijini mustahkamlaydi, investorlar va hamkorlar ishonchini oshiradi, hamda xalqaro ta'minot zanjirlariga kirishni osonlashtiradi.

#### Hukumat tamoyili

Shaffof boshqaruv, hisobot berish tizimi va risk-menejment milliy ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy va institutsional barqarorligini kuchaytiradi, bu esa uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantiradi

### **1-rasm.ESG tamoyillarining konseptual mazmuni.<sup>36</sup>**

*(Manba: muallif ishlanmasi)*

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida yashil iqtisodiyotga o‘tish, energiya intensivligini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu esa strategiyaning Atrof muhit ekologiya yo‘nalishi milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozorlarida barqaror va uzoq muddatli raqobat ustunligini makroiqtisodiy darajada shakllantirishning asosiy sharti sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Zamonaviy global iqtisodiy sharoitda milliy ishlab chiqaruvchilar jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun o‘zlarining ESG ko‘rsatkichlariga e‘tibor qaratishlari shart. ESG ning strategik ahamiyati bir nechta asosiy jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Innovatsiyani rag‘batlantirish ya‘ni atrof-muhitni muhofaza qiluvchi biznes amaliyotlarini joriy etish korxonalarda yangi, barqaror texnologik yechimlarni izlashga undaydi. Bu jarayon sanoat innovatsiyalarini rivojlantiradi va milliy ishlab chiqaruvchilarning global raqobatbardoshligini oshiradi, chunki barqaror innovatsiyalar mahsulot sifatini va eksport salohiyatini kuchaytiradi.

Eksport jarayonlarida strategik iste‘molchilarni jalb qilish orqali ESG tamoyillariga asoslangan strategiyalar orqali kompaniya o‘z brendi qadriyatlarini aks ettiradi. Natijada, qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan ijtimoiy ongli iste‘molchilarni jalb qilish mumkin bo‘ladi. Bu O‘zbekiston korxonalarining eksport qilinadigan mahsulotlari bozorida muvaffaqiyatli pozitsiyasini

<sup>36</sup> Porter, M. E. (1990). The competitive advantage of nations. New York: Free Press.

mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki iste'molchilar ekologik va ijtimoiy mas'uliyatga e'tibor beruvchi mahsulotlarni afzal ko'radi.

Investorlarni jalb qilish orqali ESG ko'rsatkichlari investorlar uchun muhim indikator sifatida qabul qilinadi. Yaxshilangan ESG strategiyasi orqali korxonalar arzonroq kapital jalb qilishi, barqaror moliyaviy instrumentlar va xalqaro investitsiya imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin. Bu "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan moliya bozorini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish yo'nalishlarini amalga oshirishda yordam beradi.

Malakali xodimlarni jalb qilish va ushlab qolish. Rag'batlantiruvchi ish haqi, korporativ madaniyat, gender tengligi va xodimlarning shaxsiy qadriyatlarini hurmat qilish ESGning ijtimoiy komponenti orqali amalga oshadi. Bu korxonalar uchun eng malakali xodimlarni jalb qilish va ularni motivatsiyalash imkonini yaratadi. Xodimlar ESG tamoyillarini ish jarayonida qo'llaganda korxonalar ichki samaradorligi oshadi, bu esa global raqobatbardoshlikni yanada mustahkamlaydi va korxonalar samaradorligi barqarorlashadi.

Barqaror biznes va resurslar xavfsizligi ta'minlanishi. Iqlim o'zgarishi va resurslarning kamayishi sharoitida ESG tamoyillariga asoslangan barqaror amaliyotlar korxonalarini kelajakdagi resurs tanqisligiga tayyorlaydi. Shu tariqa, ESG nafaqat moliyaviy yoki marketing afzallik, balki milliy ishlab chiqaruvchilarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, ESG tamoyillariga sarmoya kiritish va ularni xodimlar, investorlar, iste'molchilar va boshqaruv tizimlari orqali integratsiya qilish O'zbekiston korxonalarining jahon bozorlarida barqaror va uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi esa ushbu ESG integratsiyasini davlat siyosati va institutsional muhit orqali qo'llab-quvvatlaydi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Gan, Y., & Na-Nan, K. (2020). *Employees' awareness of environmental, social and governance (ESG) principles as a factor of corporate social responsibility: A scale development study. International Journal of Corporate Social Responsibility, 5(1), 12–28.*

2. Wang, S. L., Chin, M. K., & Sheehan, N. T. (2022). *From principles to practice: Developing implementable ESG frameworks. Journal of Corporate Sustainability, 15(3),*

3. Porter, M. E. (1990). *The competitive advantage of nations. New York: Free Press.*

4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2023). O'zbekiston – 2030: Milliy rivojlanish strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati.*